

**TILIMIZGA KIRIB KELGAN YANGI SO‘ZLAR VA ULARNING
LEKSIKOLOGIYADAGI AHAMIYATI****Xolmurodova Gulmira**

Toshkent Farmatsevtika Instituti

Akademik Litsey o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18612407>**Kirish**

Til jamiyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti va globallashuv jarayonlari til taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada tilning lug‘at tarkibi doimiy ravishda yangilanib boradi. Hozirgi kunda o‘zbek tiliga ko‘plab yangi so‘zlar kirib kelmoqda va bu holat leksikologiya fanida muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Yangi so‘zlar va ularning mohiyati

Tilshunoslikda yangi so‘zlar neologizmlar deb ataladi. Neologizmlar jamiyatda paydo bo‘lgan yangi tushuncha, predmet va jarayonlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so‘zlar dastlab yangilik sifatida qabul qilinadi, ammo vaqt o‘tishi bilan keng iste’molga kirib, tilning faol lug‘at boyligiga aylanadi.

Masalan, keyingi yillarda *internet*, *onlayn*, *smartfon*, *blogger* kabi so‘zlar kundalik nutqimizda tez-tez qo‘llanmoqda. Bu so‘zlar dastlab yangi bo‘lgan bo‘lsa, hozirda odatiy leksik birlik sifatida ishlatilmoqda.

Yangi so‘zlarning tilga kirib kelish manbalari

O‘zbek tiliga yangi so‘zlar asosan bir necha manbalar orqali kirib keladi. Eng avvalo, chet tillardan, ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar salmog‘i katta. Bunga *marketing*, *menejer*, *dizayn*, *brend* kabi so‘zlarni misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida ham yangi so‘zlar yasalamoqda.

Masalan, *raqamlashtirish*, *masofaviy ta’lim*, *axborotlashuv* kabi birliklar o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari natijasida yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, ayrim mavjud so‘zlar yangi ma’noda qo‘llanib, neologizm vazifasini bajaradi. Masalan, *tarmoq* so‘zi hozirgi kunda internet bilan bog‘liq ma’noda ishlatilmoqda.

Yangi so‘zlarning leksikologiyadagi ahamiyati

Yangi so‘zlar leksikologiya fanining muhim o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi.

Chunki ular til lug‘at boyligining qanchalik tez va qaysi yo‘nalishda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Neologizmlar orqali jamiyat taraqqiyoti va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, yangi so‘zlarni o‘rganish zamonaviy lug‘atlar tuzishda, terminologiyani tartibga solishda va adabiy til me’yorlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yangi so‘zlar va til sofliqi masalasi

Chet tillardan kirib kelayotgan so‘zlarning haddan tashqari ko‘payib ketishi ayrim hollarda til sofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli imkon qadar yangi so‘zlarga o‘zbekcha muqobilalar yaratish va ularni amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu esa tilning milliy xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Ahmad A’zamning “Til nomusi” asarida tilimizni “muloyim bosqinchilar” ya’ni, chet tillaridan himoya qilish kerakligi aytiladi.

Xorijiy atamalarni o'zbekcha muqobillarga almashtirish bo'yicha jamoatchilik yuborgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Atamalar komissiyasining ishchi kengashi – O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan ko'rib chiqildi. Ishchi organ taqdim etilayotgan atamalarning milliy muqobillari bo'yicha boshqa fikr va mulohazalarni ham mamnuniyat bilan qabul qiladi va ko'rib chiqadi.

Bu muqobillari taklif etilgan so'zlar san'at, madaniyat, qarorlar, ijtimoiy tarmoqda ishlatiladigan, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq terminlar bo'lib ularga befarq qaramaslik tilimiz sofliги uchun qilinadigan amaliy choralar debochasidir.

Masalan. limit (lot.limes-chek, chegara)-muayyan narsa yoki ashyoning belgilangan me'yor darajasi o'zbek tilida-me'yoriy chegara, breket (rus)-stomatologiyada qiyshiq tishlarni to'g'irlashda foydalaniladigan moslama, o'zbek tilida tish to'g'irlagich-tishsim, anomal (yun.anomalia)-me'yor (norma)dan chetga chiqish (og'ish) o'zbek tilida noodatiy, interaktiv (ing.inter-o'zaro birgalikda; act-harakat qilmoq)-hamkorlikka asoslangan ta'lim turi, o'zbek tilida hamkorlik, interfaol, layfhak (ing)-foydali maslahat, ayyorlik, o'zbek tilida sara yechim kabi muqobillar taklif etilgan jami bo'lib 66 atamaning mos keluvchi variantlari qabul qilingan.

Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalarida o'zbek tilining musaffoligini saqlab qolish muhim omillardan hisoblanadi. Qadriyatlarni saqlanib qolish va kelajak avlodning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishida ona tiliga muhabbat ruhi bilan tarbiyalash, yaratiladigan tarix uchun zarurdir.

Hazrat Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'attayn" asarida turk tilini imkoniyatlari keng ochib berilgan. Nazarimda, bu asar yakunlanmagan, chunki millat yashar ekan uni til xususiyatlari zamon bilan hamnafas bo'lib yaratilishda davom etadi.

Jadid bobolarimizdan Abdurauf Fitrat millatni o'zga tillarga taqlid qilishdan qaytaradi, milliy o'zligimizni saqlab qolishga da'vat etadi. Mahmudxo'ja Behbydiy esa "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida fransuz, rus, arab, fors tillarini bilish lozimligini qayd etadi.

Qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak ikki mulohazaning ham o'z ijtimoiy ahamiyati bor va buni vaziyatlar taqozasi asosida amalga oshirishimiz talab etiladi.

Shunday ekan sof tilda- keng dunyoqarash, chuqur mulohazalar asosida so'zlash va fikrlarimizni ochiq tilda bayon etish har bir o'zbek farzandining yozilmagan burchidir.

Millatning ruhi hisoblangan ona tiliga hurmat kelajak uchun qo'yilgan yuksak parvozdir. Cho'lpon bobomiz aytganidek "Til va adabiyot yashasa-millat yashaydi".